



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Андижон вилояти

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy. Tel/Faks (374) 223-57-82, E-mail: ekspert-2312@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: ASKAROV DILSHODBEK ALIJONOVICH

Sana:11-10-2023 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 125294**

**Obyekt nomi** «Baliqchi tumani “Tumor” MFY №32-sonli maktabga sportzal qurish»

**Buyurtmachi** - Andijon viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi” DUK

**Bosh loyihachi** - "Andijonfuqaroloyiha" MChJ

**Litsenziya** AL-000941 sonli 21.06.2020 yildan, muddati cheksiz. O`zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi

**Moliyalashtirish manbai** - byudjet mablag'lari hisobidan.

**Bosh pudratchi** - tender savdolari asosida aniqlanadi

**Qurilish turi** qayta qurish

**Murojaat raqami:** № 117749

**1. Loyihalash uchun asos**

Xalq deputatlari Baliqchi tumani kengashining 10.05.2023 yildagi №VI-37-29-1-18-K/23-sonli qarori.

Andijon viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2023 yil 24 avgustda berilgan №1703-1703206-73807-sonli Arhitektura-Rejalashtirish Topshirig`i xujjati.

Andijon viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi” DUK direktori tomonidan tasdiqlangan, Andijon viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i hamda Baliqchi tumani №32-son umumta'lim maktabi tomonidan kelishilgan 2023-yildagi loyiha oldi topshirig'i.

Buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti o`rtasida 06.09.2023 yilda tuzilgan №52412-sonli shartnoma.

Andijon viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2023 yil 26 sentabrdagi №97513522-sonli xulosasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyiha bosqichida to'liq loyiha smeta xujjatlari.

Ruhsatnomalar va kelishuv xujjatlar jamlanmasi, umumiy tushuntirish kitob tarzida.

Muxandislik geologik qidiruv ishlari «O`ZGASHKLITI» DUK tomonidan 2023 yilda bajarilgan xulosa.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

**Qurilish maydoni tafsilotlari:**

Maydon seysmikligi 8-balli

Tashqi havoning qishki xarorati -16°C;

Qordan tushadigan yuk -50 kg/m<sup>2</sup>;

Shamolning ta'sir kuchi -38 kg/m<sup>2</sup>;

Yozgi hisobiy havoning issiqlik xarorati +33°C.

### **Bosh reja:**

Loyihalashtiriladigan yangi sport zal binosi Baliqchi tumani "Tumor" MFY xududida joylashgan. Obyekt yer uchastkasining chegaralari hamda unga tutash obyektlar yoki yer uchastkalari to'g'risida ma'lumot: shimol, g'arb, sharq tomondan aholi uylari bilan, janub tomondan yo'l bilan chegaralanadi.

Bosh rejada quyidagi bino-inshootlar ko'rsatilgan: mavjud binolar, loyihaviy yangi sport zal binosi va 25 m<sup>3</sup> hajmdagi oqava suv havzasi joylashgan.

Bosh reja rel'ef va mavjud kommunikatsiyalarni hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan.

### **Me'moriy va konstruktiv yechimlari.**

**Loyixaviy sportzal binosi** - o'lchamlari 12.0x31,10m o'lchamli (sportzal va yordamchi binosi bilan). Loyixaviy quriladigan sportzal binosiga quyidagi xonalar joylashtirilgan: yo'lak, vestibul, sportzal, jixozlar saqlash xonasi, sinf xonasi, sport muallimi xonasi, o'gil va qiz bolalar uchun kiyinish xonasi, yuvinish xonasi va xojaxona joylashgan. Tashqi pardoz ishlarida tashqi devorlar suvoq qilinib, 80mm qalinlikdagi ( $\gamma=125$  v<sup>3</sup>/kg) bazalt qoplamali issiqlik himoya qatlami qoplanib, pardozlashda devorlar so'nggi rusumli fasad bo'yog'i (travertin) bilan bo'yalgan bo'lib, sokol qismida moyli bo'yoqlanadi, kirish zinapoya ustiga keramogranit qoplanadi. Derazalar - alyumin profildan, ikki qatlamli oynali, oynaosti taxtalari alyuminiy profil, kengligi 25 sm, tashqi qismi rux tunukadan. Eshiklar - MDF, yopiq (gluxoy), qalinligi 6 mm. binoga tashqaridan kiriladigan eshiklar alyuminiy profil, ikki qatlam oynali. Xonalarning funksional-texnologik vazifasidan kelib chiqib qabul qilinadi boshqa eshiklar tanlanadi, zamonaviy, mustahkam va sifatli bo'lgan qulflar o'rnatiladi. Ichki pardozlash: shiftlar - yo'laklarda, vestibullar va mayishiy xonalar uchun - yaxshilangan vodoemulsiyali bo'yoq. Devorlar - yorqin rangli asosda (svetlix tonov) vodoemulsiya tarkibli yaxshilangan bo'yoq ikki qatlamli suyuq akril qoplamali sportzal va myishiy xonalar uchun. Qolgan xonalar - vodoemulsiyali akril tarkibli rangli asosda yaxshilangan bo'yoqlash. Kiyinish xonalari, yuvinish xonalari, xojaxonalar devorlari 1.65m balandlikda keramik plitka bilan qoplanadi. Sportzal shiftlari profnastil bilan qoplanadi. Pollar - sportzalda 4.5mm qalinlikdagi sport relini bilan qoplanadi, sinf xonasi, yo'laklar, kiyinish xonalari 2mm qalinlikdagi relin bilan qoplanadi, yuvinish xonalari va xojaxonalar pollari keramik plitka qoplanadi.

Bino quyidagi konstruktiv elementlardan qurilgan: Poydevorlar - quyma t/b tasmasimon va ustunlar ostida kengaytirilgan, beton sinfi B-15. Sokol devori - yig'ma beton bloklardan. Sokol devorining ustki qismiga - sinfi B-15 bo'lgan quyma t/b belbog' quyish lozim. To'siq va yuk ko'taruvchi devorlar - g'isht terimi II kategoriyali, pishiq g'isht markasi M-75, qorishmasi M-50, qalinligi 380 mm. Devorlar quyma t/b o'zaklar (serdechniki), sarbastalar (peremichki), ramalar, t/b belbog'lar bilan kuchaytirilgan. Hamma devorlarning kesishgan joylari balandlik bo'yicha har 500mm o'lchamda SG-1 armatura setkalari bilan kuchaytirilgan (tashqi issiqlik ximoya qatlami 80 mm qalinlikdagi bazalt tolali); Temirbeton ustunlar - quyma temir betonli markasi B-25. Fermalar - metall prokatli burchakliklardan. Yordamchi bino yopmasi - yigma temirbetondan plitalardan. Eshiklar - MDFdan va alyumin profildan individual tayyorlanadi. Derazalar va vitrajlar - alyumin profildan individual tayyorlanadi, oynalar ikki qatlamli, eshiklarning tepasidagi framugalar MDFdan. Pollar - sportzalda 4.5 mmli relin, yordamchi binoda keramik plitkalardan, 2mm qalinlikdagi relin qoplamali, issiqlik ximoya qatlami - 3sm qalinlikdagi bazalt tolali. Tom - yordamchi binoda chordoqli, yog'och konstruksiyalardan, tom qoplamasi 0,51mm bo'lgan profnastildan, issiqlik

ximoya qatlami 160mm qalinlikdagi bazalt tolali. Tom – sportzalda metall konstruksiyalardan, tom qoplamasi sendvich paneldan. Pardadevorlar (peregorodki) – 120mm o'lchamda, pishiq g'ishtdan, metall burchaklilar bilan hamda SG armatura setkalar bilan kuchaytirilgan. Otmostka - shagal to'shama yotqizilib betondan quyiladi.

Undan tashqari ishchi loyixada – oqava suv uchun o'ra 25.0m<sup>3</sup>, muhandislik tizimlari va obodonlashtirish ishlari ko'zda tutilgan.

#### **Ishchi loyihada; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablariga muvofiq amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ish turlari.**

- Issiq suv ta'minoti issiqlik punktidan va bino va iishootlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish talablari ko'zda tutilgan, binoning tom qismida o'rnatilgan quyosh batareyasi kollektoridan qo'shimcha issiq suv taminlanishi ko'zda tutilgan.

- II-toifali energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob'ekt energiya resurslarini zamonaviy "aqlli" o'lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo'yicha talablar ko'zda tutilgan.

- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya'ni, quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismiga mineral vata (bazalt) qoplash ko'zda tutilgan.

#### **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan 2023 yil 24 avgust kungi №1703-1703206-73807-sonli Arhitektura-Rejalashtirish Topshirig'i xujjatiga muvofiq hal qilinadi.

#### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

Andijon viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 2023 yil 26 sentabrdagi №97513522-sonli xulosasi.

O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi tomonidan 2023 yil 30 maydagi №108-sonli xati.

Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2023 yil 25 avgust kuni berilgan №09-09/11-18-989-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

#### **6. Ekspertiza natijalari.**

Loyixani ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar loyixa tashkiloti tomonidan dastlabki loyixa chizmalari va smeta xisob-kitoblari to'g'rilanib qayta to'ldirildi.

Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudradchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy (ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019 yil 19 avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan «Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi» Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni

ishlanma boshlanishidan amalga tadbiiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Taqdim etilgan 12% QQS bilan xisoblangan umumiy qiymati 1215673,394 ming so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so'ng 1756,443 ming so'm ish hajmlari o'zgarishi va qurilish materiallari narxlari hisobidan kamaytirildi.

## 7. Xulosalar.

Ishchi loyihasi; "Baliqchi tumani "Tumor" MFY №32-sonli maktabga sportzal qurish" ob'ektini quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra keyingi kelishuv va tender savdolarini o'tkazish uchun tavsiya etiladi:

Qurilish maydoni	- 404,3 m <sup>2</sup> ;
Umumiy maydon	- 347,08 m <sup>2</sup> ;
Qurilish xajmi	- 2567,5 m <sup>3</sup> ;
Me'yoriy mexnat sarfi	- 1017,42 kishi/kun.
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) qiymati 12% QQS bilan	- 1198108,951 ming.so`m.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomondan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang'ich hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrad korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

ShNK 1.03.06-13da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyixa qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

**Bosh mutaxassis:** Xaldarov Jur'at Alimdjanovich

### Ishtirokchi ekspertlar:

SADIKOV ALISHER ODILJONOVICH

Abdurashidov Miryusup Kobulovich

Быкова Valentina Yevgenevna

ASQAROV OTABEK FAZLIDINOVICH

shartnoma-0a30e363-d9f2-4ab1-9e87-ab70499eb4d8-62446 [Faylni ko'rish](#)